

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARINING YEVIROPA VA O'ZBEK NASRIDA O'RNI

Xolboyeva Mohinur Nursaid qizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari universteti talabasi

Imiy rahbar: Anarkulova Zubayda

O'zbekiston davlat Jahon tillari universteti" o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarining o'zbek nasri va tarixida qanchalik o'rin tutganligi hamda Yevropa adabiyoti va ilmiy qarashlaridagi ta'siri haqida so'z yuritiladi. Asarning adabiy, tarixiy va psixologik jihatlari o'rganilib, uning o'zbek adabiyoti rivojlanishidagi roli va Yevropa ilmiy muhitidagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Boburnoma, o'zbek nasri, Zahiriddin Muhammad Bobur, Yevropa adabiyoti, tarixiy asar, tarjima.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнаме» в узбекской прозе и истории, а также его влияние на европейскую литературу и научные взгляды. Анализируются литературные, исторические и психологические аспекты произведения, раскрывается его роль в развитии узбекской литературы и место в научной среде Европы.

Ключевые слова: Бабурнаме, узбекская проза, Захириддин Мухаммад Бакур, европейская литература, историческое произведение, перевод.

Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur - nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki yuksak salohiyatli adib, shoir va tarixchi sifatida ham jahon madaniyatida o'ziga xos iz qoldirgan shaxsdir. Adibning qalamiga mansub "Boburnoma" asari o'zbek adabiyotining bebaho durdonalaridan biri sanaladi. Mazkur asar o'z mazmuni, tarixiy haqiqatlarga yaqinligi, tilining sodda va jonli bo'lishi bilan ham Sharq, ham G'arb olimlarini qiziqtirib kelmoqda. Ushbu maqolada "Boburnoma" asarining Yevropa adabiyoti hamda o'zbek nasriy an'analariidagi o'rni va ta'siri tahlil qilinadi.

Asosiy qism

"Boburnoma" - bu avvalo tarixiy yodgorlikdir. Unda o'n beshinchi va o'n oltinchi asrlarda Movarounnahr, Afg'oniston va Hindiston hududlaridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy holat Boburning shaxsiy kuzatuv va tajribalari asosida yoritiladi. Asarda Bobur nafaqat voqealarni sanab o'tadi, balki ularni chuqur tahlil qiladi, o'zining hissiy kechinmalari bilan boyitadi. Bu esa "Boburnoma"ni tarixiy hujjatdan tashqari, adabiy-badiiy asar sifatida ham qadrlashga asos yaratadi.

Bobur o'z asarini turkiy tilda, ya'ni Chig'atoy lahjasida yozgan. Bu birinchidan, o'zbek nasrining ilk namunalari sirasiga kiradi. Uning tili sodda, lekin

chuqur ma'naviy mazmunga ega bo'lib, xalqona iboralar va jonli tafakkur ifodalariga boy. Bobur o'zining shaxsiy hayoti, yurish-turishlari, atrofidagi odamlar haqida nihoyatda samimiy va sodda uslubda yozadi. Bu jihatlari o'zbek nasrining shakllanishi va rivojlanishiga kuchli turtki bo'lgan.

Boburning realistik yondashuvi, voqealarni bevosita ko'rganidek tasvirlashi keyingi o'zbek adiblari, xususan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulomlar ijodiga ham ta'sir ko'rsatgan. "Boburnoma" o'zbek adabiyotida autobiografik, tarixiy va psixologik nasrning asosiy yo'nalishlariga tamal toshi bo'lgan deyish mumkin.

"Boburnoma" asari ilk bor Yevropada o'n to'qqizinchi asrda e'tibor qozondi. 1826-yilda ingliz olimi J. Leyden va V. Erskine tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinib, keng jamoatchilikka taqdim etildi. Bu tarjima orqali G'arb olimlari nafaqat Bobur shaxsi, balki Markaziy Osiyo va Hindiston tarixiga oid muhim ma'lumotlar bilan tanishish imkoniga ega bo'ldilar.

"Boburnoma" bugungi kunga qadar ingliz, rus, fransuz, urdu, hind, fors, arab, va boshqa ko'plab tillarga tarjima qilingan. Har bir tarjima o'zining davri va madaniy iqlimiga mos tarzda amalga oshirilgan bo'lsa-da, asarning asosiy ruhiy-psixologik va tarixiy mohiyati saqlanib qolingan. Xususan, rus tilidagi tarjimalar Boburning fikrlaridagi nozik psixologik jihatlarni chuqur ochib bergani bilan ajralib turadi.

Yevropa olimlari Boburni "Sharqdagi Moten" deb ataganlar, bu esa uning o'ziga xos tafakkur va realistik yondashuvini qadrlash belgisi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, "Boburnoma" jahon adabiy merosining ajralmas qismiga aylandi.

Xulosa

Zahiriddin Muhammad Boburning mazkur asari Sharq va G'arb ilmi-fanida, ayniqsa, adabiyotshunoslik, tarix, geografiya, psixologiya sohalarida beqiyos ahamiyatga ega. U o'zbek nasrining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Yevropa adabiy va ilmiy jamoatchiligini esa o'zining chuqur mazmuni bilan rom etgan. "Boburnoma" nafaqat o'z davrining guvohnomasi, balki hozirgi kunda ham muhim ahamiyatini saqlab qolayotgan bebaho yodgorlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur, Z.M. Boburnoma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2017.
2. Erskine, W., Leyden, J. Memories of Bobur. London, 1826.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Rahmonov Sh. O'zbek nashrining shakllanish bosqichlari. Toshkent: Akademnashr, 2005.
5. Zohidov, N. Boburnoma va Yevropa sharqshunosligi. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2020 N2.